

QO'QON GURUH TUMANLARI HUDUDINING GEOEKOLOGIK HOLATINI BAHOLASH.

D.G'.Mo'minov, T.G'.Abdusattorova.

Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot ishida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlari sharoitida qishloq xo'jaligi hududlarida geoeologik holatni takomillashtirishni tadqiq etishning nazariy-uslubiy asoslari tadqiq etilgan. Qishloq tumanlari hududida geoeologik-xo'jalik muvozanatning makon va zamonda o'zgarishi, uning tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy jihatlari tahlil qilingan.

Annotation

This research paper examines the theoretical and methodological foundations for studying the improvement of the geoeological state of agricultural territories in the context of socially oriented market relations. Changes in the geoeological and economic balance of land resources, including their natural, economic, and social aspects, are analyzed.

Qo'qon guruh tumanlaridagi geoeologik holat uzoq davom etgan ishlab chiqarish va tabiiy jarayonlarning mahsuli sifatida shakllangan. Mazkur holatni takomillashtirish yo'llarini qidirib topish uchun bu jarayonning borishini har tomonlama, chuqur ilmiy tahlil etish zarurati yuzaga keladi. Buning uchun qishloq xo'jaligida foydalaniladigan hududlarda tabiiy landshaft tarkibining o'zgarish jarayonini monitoring asosida o'rganish zarur.

Ma'muriy tuman qishloq hududlarining landshaftli dasturini ishlashda foydalanish mumkin bo'lgan, quyidagi tamoyillarini alohida ta'kidlash lozim:

-tuman hududidagi balandlik mintaqalaridan alohida maqsad bo'yicha, geoeologik sharoit va ijtimoiy zaruratga mos holda, foydalanish;

-har bir balandlik mintaqada, uning landshaft ko'rsatkichlariga mos keluvchi foydalanish turini ajratish;

-landshaftlarning (yer va suv) miqdori va sifatiga mos holda ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish;

-an'anaviy tabiatdan foydalanish bo'yicha to'plangan mehnat malakalari va ko'nikmalarini asrash va boshqalar.

Tabiiy resurslardan foydalanishdagi ikkinchi bosqichda yerdan foydalanishning tabiiy-tarixiy tizimiga barham berildi. Barcha landshaft turlari va balandlik mintaqalaridan bir xil maqsadda, ularning tabiiy imkoniyatlari hisobga olinmay foydalanishga kirishildi. Mazkur davrda amal qilingan tabiatdan foydalanish siyosati

oqibatida iqtisodiy ko'rsatkichlarda yuqori natijalarga erishilsada, hududning geoeologik va ijtimoiy sharoiti salbiy tomonga o'zgardi.

Mustaqillik yillarida boshqa sohalarida bo'lgani kabi tabiiy resurslardan foydalanishda ham mamlakatimiz ehtiyojlarini hisobga oluvchi siyosat yuritildi. Hududlarda tabiatdan foydalanishda yuz beradigan geoeologik o'zgarishlarni baholash va bashoratlash uchun mintaqada oxirgi 20 yilda tabiatdan foydalanishni aks ettiruvchi monitoring o'tkazildi. Monitoring o'tkazishda yer fondi tarkibidagi va qishloq aholisi soni dinamikasidagi o'zgarishlar tahlil etildi. Yig'ilgan ma'lumotlar asosida o'rganilayotgan mintaqada yuz bergan geoeologik o'zgarishlar dinamikasi statistik tahlil etildi va xulosalanadi.

O'rganilayotgan davrda mintaq hududida ekologik muvozanatni saqlovchi o'zgarmagan "ekologik tayanch" landshaftlar hududining miqdori yildan-yilga kamayib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. O'rganilgan yillar davomida mintaq hududidagi "ekologik tayanch" landshaftlar maydoni 1990 yildagi 257,3 ming gektardan 2025 yilga kelib, 176,5 ming gektarga tushib qoldi. Bu yillar davomida viloyat hududida jami mazkur landshaftlarning maydoni 80,8 ming gektar kamaydi, o'rtacha har 5 yilda bu landshaftlar hududi o'rta hisobda 4 ming gektarga kamayib bormoqda. Mazkur guruhdagi landshaftlar maydonining kamayishi o'rmonzor, butazor va qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa landshaftlar hisobiga yuz bermoqda. Agar viloyat bo'yicha bu landshaftlar maydoni 1990 yilda butun viloyat hududining 38,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda u 2,9 foizga qisqarib, 6 foizni tashkil etdi. Dastlabki xulosada hozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitida "ekologik tayanch" landshaftlar maydonining 20 yilda buncha miqdorga qisqarishi u qadar xatarli emasdek tuyuladi, biroq, bu landshaftlar maydonining 19 foizga yaqini, ya'ni, 48591 gektarini suv ostida qolgan landshaftlar tashkil etishini hisobga olsak, haqiqiy ekologik jihatdan foydali bo'lgan yashil maydonlarning kamayishi anchagina tez borayotganligini kuzatish mumkin.

"Ekologik tayanch" landshaftlarning bunday dinamikasi viloyatda o'ziga xos hududiy farqlarga ega. Bu farqlar birinchi navbatda tuman hududining qaysi balandlik mintaqasida joylashganligiga, aholisining zichligi va soniga bog'liq ekanligini tahlillar ko'rsatadi. Birinchi mintaqada joylashgan Buwayda, Dang'ara, Furqat tumanlarida bu guruh landshaftlari maydonining o'zgarishi u qadar sezilmaydi. Agar 1990 yilda Furqat tumani tashkil etilmaganligini hisobga olib, 1995-2010 yillar ko'rsatkichlari o'rganilsa, mintaqada mazkur landshaftlar maydoni 46,3 ming gektardan 43,6 ming gektarga kamayib, butun hududning 29,5 foizini tashkil etdi. Mintaqa tumanlari orasida "ekologik tayanch" landshaftlar maydonining eng ko'p qisqarishi Furqat tumanida kuzatildi, 1995 yildagi 10,2 ming gektardan 2025 yilda 6 ming gektarga tushib qoldi. Ikkinchi balandlik mintaqasida joylashgan Beshariq, Bag'dod, Uchko'prik tumanlarida bu landshaftlar maydonining salmog'i tuman hududining kattaliligiga

qarab o'zgarib boradi. Hududi katta maydonni egallagan Beshariq tumanida mazkur landshaftlar 41,4 ming gektarni tashkil etib, butun hududning 53,6 foizini egallasa, maydoni nisbatan kichikroq, o'zlashtirilish darajasi yuqori bo'lgan Bag'dod, Uchko'prik tumanlarida butun hududning mos ravishda 22,8; 27,2 foizini egallaydi. Mintaqadagi o'zgarmagan "ekologik tayanch" landshaftlarning asosiy qismi to'rtinchi balandlik mintaqasida joylashgan O'zbekiston tumani hududiga to'g'ri keladi. O'rganilayotgan 20 yil davomida bu mintaqada mazkur landshaftlarning miqdori sezilarli darajada kamaydi. 1990 yilda 116,1 ming gektardan 15,8 ming gektarga kamayib, 2010 yilda 100,3 ming gektarni tashkil etdi. Bu guruh landshaftlari maydonining kamayishi ekologik jihatdan anchagina xatarli bo'lgan adir va past tog'lar hududini qishloq xo'jaligi tizimiga tortilishi, u yerlarni nasos yordamida sug'orish ishlarini amalga oshirilishi hisobiga yuz berdi. So'x tumanida butun hududning 67,3 foizini, O'zbekiston tumanida 54,9 foizini "ekologik tayanch" landshaftlar tashkil etadi. Mazkur "ekologik tayanch" landshaftlar toifasiga kiruvchi landshaftlar maydoni ekstropolyatsiya usulida bashorat qilinganda viloyat bo'yicha har 5 yilda ularning maydoni 4,9-5,0 ming gektarga kamayib borayotganligini ko'rish mumkin. Afsuski, bu holat shunday davom etsa, 2030 yilga borib, mintaqadagi "ekologik tayanch" landshaftlar maydoni keskin kamayib ketishi mumkin. Bu qisqarish geoekologik holatning yanada murakkablashuviga sabab bo'ladi. Bashoratning hududiy farqlarini har bir tuman va balandlik mintaqalari bo'yicha tahlil qilish mumkin. Eng yuqori miqdordagi qisqarish IV mintaqada joylashgan tumanlarda kuzatilishi vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Sababi, landshaftshunoslikda yaratilgan "tog'-tekistlik" geojuftligi va havzali yondashuv konsepsiyasi bo'yicha havzaning yuqori qismida ekologik vaziyatning buzilishi butun havzaga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi va anomal tabiiy o'zgarishlarga (sel, toshqin, qurg'oqchilik) sabab bo'lishi mumkin. Mintaqada qisman o'zgargan "kam foydalaniladigan" landshaftlar toifasini aniqlashda ham yer fondi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Farg'ona vodiysining boshqa viloyatlarida bo'lgani kabi "kam foydalaniladigan" landshaftlar mintaqada eng kichik ulushga egadir. Ularning maydoni 1990 yilda 13,9 ming gektarni tashkil etib, jami viloyat hududning 2,1 foizini egallagan bo'lsa, 2025 yilda bu ko'rsatkichlar mos holda 21 ming gektar va 6 foizni tashkil etdi. O'rganilayotgan hududda asosiy kam foydalaniladigan landshaftlari birinchi hamda to'rtinchi balandlik mintaqasida joylashgan tumanlarga to'g'ri keladi. Birinchi mintaqadagi Dang'ara tumanida bu landshaftlar 16 foiz maydonni egallasa, O'zbekiston tumanida yaylov va bo'z yerlarning ulushi 2,4 foizni tashkil etadi. Bu toifaga tegishli bo'lgan landshaftlarning miqdori keyingi yillarda ham kamayib borishi kutiladi.

Bu guruh landshaftlarining ham ko'rsatkichi yildan-yilga kamayib borayotganligi bashorat natijasida ham o'z aksini topdi. Agar bu guruh landshaftlar maydonining qisqarish jarayoni shu tartib davom etadigan bo'lsa, 2030 yilga borib

atiga 3,0 ming gektardan oz kam foydalaniladigan landshaftlar maydoni qolishi mumkin. Ayniqsa, bu toifa landshaftlar maydoni IV mintaqada tez sur'atlar bilan yiliga 100 gektardan qisqarib borayotganligi kuzatilmoqda. Agar "kam foydalaniladigan" landshaftlar miqdori shu sur'atda kamayib borsa, kelgusi 40-50 yillar davomida ushbu landshaftlarning batamom yo'qolib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'rganilayotgan hududda o'zgargan landshaftlar guruhini "ko'p yillik daraxtzorlar" tashkil etadi. Qo'qon guruh tumanlari uchun bu guruh landshaftlari ham ekologik va iqtisodiy muvozanatni saqlovchi gomogen guruhlardan biri ekanligini ta'kidlash lozim. Bu guruh o'rganilayotgan yillar davomida miqdor va ulush jihatdan eng katta o'zgarishga uchradi. Viloyat bo'yicha "ko'p yillik daraxtzorlar" maydoni 1990 yilda 41,4 ming gektardan 2025 yilda 49,7 ming gektarga ko'paydi, ya'ni o'rganilayotgan davrda 7,3 ming gektar yangi daraxtzorlar tashkil etildi. Foiz hisobida 1990 yilda bu guruh landshaftlarining maydoni umumiy maydonning 6,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilda bu ko'rsatkich 16 foizni tashkil etdi. Hududiy jihatdan tahlil etilganda "ko'p yillik daraxtzorlar" maydoni to'rtinchi balandlik mintaqasida joylashgan tumanlarda, nisbatan, ko'proq va tez kengaymoqda. O'zbekiston tumanining 30 foiz hududini "ko'p yillik daraxtzorlar" egallaydi. Chunki, adir va tog'li hududlarda bog'larning tashkil etilishi xo'jalik jihatdan samaraligina bo'lib qolmasdan, balki ekologik jihatdan ham foydalidir. Daryolar suv rejimini tartibga solishda bu mintaqada joylashgan daraxtzorlar alohida funksiyani bajaradi. Birinchi va ikkinchi mintaqada joylashgan boshqa tumanlarda ham bog'lar maydoni juda kam o'zgarganligini kuzatish mumkin. O'rganilayotgan yillarda Bag'dod tumanida "ko'p yillik daraxtzorlar" maydonining qisqarganini qayd etish mumkin. Mazkur guruh hududining ushbu mintaqada bunday o'zgarishi geoekologik-xo'jalik jihatdan maqsadga muvofiqdir. Mintaqa bo'yicha hisoblanganda, yuqoridagi landshaft guruhlaridan farq qilib, bu guruh maydoni yildan-yilga ko'payib bormoqda. Yillik o'sish viloyat bo'yicha 700-750 gektarni tashkil etadi, bu sur'at davom etsa, 2030 yilga borib ushbu guruh landshaftlar maydoni 61,2 ming gektarni tashkil etishi kutiladi. Qishloq joylarida ko'p o'zgargan ekologik jihatdan xavfli, tezkor foydalaniladigan hududlar "agroirrigatsion landshaftlar"dir. Bunday hududlar qishloq xo'jaligi yer turlari tarkibida va tomorqa yerlari tarkibidagi sug'oriladigan yerlardir.

Qishloq xo'jaligi yerlari ekologik holatining o'zgarishi tuproqning sho'rlashuvi, suv va shamol eroziyasi, turli xil og'ir metallar va pestitsidlar bilan zaharlanish, og'ir texnika ta'sirida tuproq mexanik tarkibining buzilishi kabi salbiy holatlar aynan shu guruhga kiruvchi landshaftlarda kuzatiladi. Bundan tashqari, bu landshaftlar maydoni va ulushi barcha tumanlarda eng katta miqdorda bo'lib, ulardagi salbiy tomonga o'zgarish butun tuman yoki viloyat hududida sezilarli oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bu guruh landshaftlarining tumanlar iqtisodiyotida tutgan o'rni ham alohida. Chunki, bu hududlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida asosiy ishlab

chiqarish vositasi funksiyasini bajaradi. Qo'qon guruh tumanlari hududida bu guruh landshaftlarining maydoni doimiy ravishda qisqarib borayotganligi achinarlidir. Agar 1990 yilda agroirrigatsion landshaftlar maydoni viloyatda 134,2 ming gektarni, ulushi esa 45,0 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu landshaftlarning maydoni 102 ming gektarga, ulushi esa 8,0 foizga tushib qoldi. Bag'dod, Dang'ara, O'zbekiston, Uchko'prik tumanlarida bu guruh landshaftlarining maydoni yildan-yilga qisqarib bormoqda. Faqatgina Beshariq tumanida bu guruhga kiruvchi landshaftlar maydonining bir oz ko'payganligini kuzatish mumkin. Hududiy jihatdan tahlil qilinganda birinchi, ikkinchi, uchinchi balandlik mintaqasida joylashgan tumanlarda bu guruhga kiruvchi landshaftlar maydonining ulushi 46-55 foiz orasida tebranib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Абдулкасимов А.А. Проблемы изучения межгорно-котловинных ландшафтов Средней Азии. - Т.: Фан, 1983. - 125 с.
2. Боймирзаев К. Фарғона вилояти воҳа ландшафтларидан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш. - Т.: Фан, 2007. – 132 б.
3. Алибеков Л.Н. Новые подходы к сопряженному изучению горных и равнинных ландшафтов (на примере Средней Азии). // География и природные ресурсы. - Новосибирск, 1992. - №3. - С. 29-37.
4. Аҳмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан қишлоқ хўжалигида фойдаланишнинг ҳудудий ташкил этилишини такомиллаштириш (Фарғона водийси мисолида): География фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.: 2007. – 334 б.
5. Qo'ziyeva O.M. Janubiy Farg'ona landshaftlarini iqlim va yer osti suvlari bilan o'zaro aloqasi hamda geoekologik holatini tahlil etish. Geografiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Sam. 2022.